



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



2023-yil 16-sentabr, shanba,

110 (23.831)-son

KUN  
HIKMATI

Ezmalik ko'p  
gapiresh emas,  
balki bemavrid  
gapirishdir

[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

↓ Prezident qaroriga ko'ra

# TADBIRKORLIK UCHUN BYUROKRATIK TO'SIQLAR OLIB TASHLANDI

Joriy yilning 4-sentabr kuni davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qaror bilan "Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat banki negizida Biznesni rivojlanish banki hamda uning huzurida "Kichik biznesni rivojlanish jamg'armasi" mas'uliyati cheklangan jamiyatni va hududlarda 14 ta kichik biznesga ko'maklashish markazlari tashkil etildi.

Biznesni rivojlanish banki tomonidan oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kichik biznes loyihalari uchun 7 yilgacha muddatda kreditlar ajratiladi. Bunda ijobiy kredit va soliq tarixiga ega tadbirkorlarga garov talabi 50 foizga kamaytirildi.

Sanoat sohasida "140 ta ilg'or sanoat korxonasi" dasturi amalga oshirilib, dasturga kiritilgan tadbirkorlarning loyihalarini moliyalashirish uchun xorijiy valyutada yillik 4 foiz, milliy valyutada 10 foiz stavkada 10 yil muddatgacha kredit mablag'lari ajratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy summasi o'rnini qoplashda (qaytarishda) soliq uzilishi (tax gap) koeffitsiyentini qo'llash amaliyoti taqiqanib, ushbu soliq bo'yicha

maxsus ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish tartibi bekor qilinadi va foyda solig'i bo'yicha har oy bo'nak to'lovchi tadbirkorlar daromadining chegaraviy miqdori 5 milliard so'mdan 10 milliard so'mga oshiriladi.

Kameral soliq tekshiruvini o'kazishda soliq to'lovchining hududiga kirish, uning hududini va binolarni ko'zdan kechirish va hujjatlarini talab qilib olish va uni chaqirish, shuningdek, soliq to'lovchining hujjatlarini va buyumlari ni olib qo'yish taqiqanadi.

2024-yil 1-yanvardan iqtisodiy sudlar tomonidan soliq organlari ishtirokida ko'rileyotgan ishlari ma'muriy sudlar yuridisxisiga o'tkaziladi, soliq majburiyati bo'yicha da've qilish muddati 5 yildan 3 yilga tushiriladi.

Aholi va tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar bo'yicha qarzdarlikni undirish bo'yicha sumping hal qiluv qarori chiqarilganda, mazkur kreditlar bo'yicha foizlar neustoyka hisoblanishi to'xtatiladi. To'lov miqdori kredit majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lmaganda, mablag'larni birinchi navbatda, mutanosib ravishda muddati o'tgan asosiy qarz va foiz qarzdarliklarini, ikkinchi navbatda, joriy to'lov uchun hisoblangan foizlar va asosiy qarzni, keyingi navbatlarda neustoyka va ijo rajaralarini qo'llashga yo'naltirish tartibi o'nataliladi.

**O'tkir HAKIMOV,**  
viloyat adliya boshqarmasi  
shu'ba boshlig'i.

Samarqand viloyati hokimining QARORI

## Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq to'qsoninchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyatni to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq to'qsoninchi sessiyasi 2023-yl 21-sentabr kuni chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-43-sonli qarorining ijrosi yuzasidan viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i R.Mamatovning hisoboti haqidagi;

- viloyatda 2023-yil I yarim yilda norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati yuzasidan viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i S.Nuriyevning axboroti haqidagi;

- viloyatda xotin-qizlar

bandligini ta'minlash borasi da amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat kambag'alikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i T.Mahmudovning axboroti haqidagi;

- viloyatda aholini ichimlik va oqova suv bilan ta'minlash darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi rejalar to'g'risida "Samarqand suv ta'minoti" MChJ rahbari K.Yusupovning hisoboti to'g'risida;

- qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun majburiy to'lov, shuningdek, yuridik shaxs va yakka tartibdagи tadbirkorlarga maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lov tariflarini ma'qullash to'g'risida;

- viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalarini foydalanish to'g'risida;

- viloyat hokimining birinchi o'rinosari F.Abilovning viloyat hokimining 2023-yil 23-avgustdagи "Viloyat mahalliy budgetining 2023-yil II chorak daromadlar rejasining

orttirib bajarilgan qismidan foydalanish to'g'risida"gi 234-7-0-Q/23-sonli qarori bilan ajratilgan mablag'larning ishlatalishi yuzasidan hisoboti to'g'risida;

- xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 20-iyuldagи "Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil II yarim yilliga mo'ljallangan ish rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-88-67-7-0-K/23-sonli qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida;

- bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini "E-auksion" elektron savdo platformasi-da elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish to'g'risidi 2021-yil 8-oktabrda VI-43-59-7-0-K/21-sonli qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida;

- jamaot ehtiyojlarini uchun yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha taqdimot materiallarini ko'rib chiqish va mulkdorlar bilan ochiq muhokama o'tkazish to'g'risida;

- viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalarini foydalanish to'g'risida;

- viloyat hokimining birinchi o'rinosari F.Abilovning viloyat hokimining 2023-yil 23-avgustdagи "Viloyat mahalliy budgetining 2023-yil II chorak daromadlar rejasining

Viloyat hokimi E.TURDIMOY

2023-yil 14-sentabr



## "ZARAFSHON" ning TO'YI – MILLIY MATBUOT BAYRAMI

Yaqinda tahririyatga turkiyalik jurnalistlar kelib, faoliyatimiz bilan, tahririyat qoshida tashkil etilgan voha matbuoti muzeysi bilan tanishdi. Muzeyda gazetaning ilk sonlari bilan tanishar ekan, hayratlarini yashira olmadı: nahotki, O'zbekistonda bir asrlik gazeta bo'lsa!

Naqiqatan ham shunday, "Zarafshon" va "Samarkandskiy vestnik" gazetalari tahririyati qoshida tashkil etilgan muzeysiga boshqa viloyatdan hamkasblari miz kelganida ham yuzlarda shu mazmundagi hayratni ko'ramiz. 110 yil davomida ushbu tahririyat ne-ne siyovlardan omon chiqdi, qanchadan-qancha ulug' insonlar ushbu tahririyatda bos muharrirlik vazifasini amalga oshirib, ajoddoliga munosib tarzda vohaning ma'naviy yatanchiga, asosiy axborot manbaiga aylanish yo'lida sa'y-harakat ko'rsatdi, shijoatini so'ndirmadi, fidoyilikni oshirdi.

"Zarafshon" gazetasining 110 yilligi hamda "Samarkandskiy vestnik" gazetasining 105 yilligi mammakatimiz matbuoti uchun ulkan voqelev bo'lgani tufayli respublika ommaviy axborot vositalari, umuman, boshqa sohalarda ham aynan "Zarafshon" gazetasida ishlab kelgan mutaxassislar ko'pchiqlik tashkil etadi. Aytmoqchimani, bu yerda kuchli ijodiy raqobat bor. Nafaqat tarixi, balki zamonalivlikka intilishi bilan o'nak bo'layotir. Zarnews.uz sayti bugun viloyat, respublika hayotiga oid axborotlarni tezkorlik bilan uzatmoqda.

O'zbekistonda xizmat ko'satgan jurnalist Abdusaid Ko'chimov olib borgan anjunanda o'z fikrini bildirish, tahririyat xodimlarini tabriklab qo'yish istagida bo'lganlar ko'p bo'ldi.

**Sirojiddin SAYYID,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi:**

- Samarqand nafaqat adapib muhit, balki jurnalista maktabi bilan ham respublikada o'z o'rniga ega bo'lgan viloyatlardan sanaladi. Eng qizig'i, bu ikki jarayonni ham ushbu gazeta o'z muhiti, savyasi, tashkilotchiligi bilan bir maromma ushlab turibdi. Aynan gazeta xodimlarining tashkilotchiligi natijasida samarqandlik ijodkorlar, jurnalistar, hatto olimlarning antologiyasi yaratildi. Gazetada chop etilgan ta'sirli, dolzarb mulohazalar doimiy ravishda kitob holiga kelitiriladi. Bunday fidoyilik haqida doim ham eshitavermaymiz.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Farg'onada viloyati bo'limi raisi Muhammadjon Obidov tahririyatimizga esdalik sovg'asini topshirayotib, "Zarafshon" gazetasining 110 yilligi, "Samarkandskiy vestnik" gazetasining 105 yilligini Farg'onada ham nishonlashni rejalashirayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, anjuman davomida ommaviy axborot vositalari xodimlari o'tasida shaxmat musobaqasi ham o'tkazilib, g'oliblarga O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limining faxriy yorilg'ini va esdalik sovg'alarini topshirildi.

Gulruh MO'MINOVA.

**Halim SAIDOV,  
filologiya fanlari nomzodi:**

- "Zarafshon" gazetasi jadid bobolar "Samarkand"iga qay darajada merosxo'lik qila oldi? Avvalo, "Zarafshon" gazetasining bugungi maqsadidan kelib chiqadi bo'lsak, u milliy g'oyamizga, jumladan, milliy istiqolimiz g'oyasining tarixiy ko'rinishi - jadidlar g'oyasiga, orzusiga hamohang ekanligini ko'ramiz. Bu huquqiy asos emasdир, lekin mantiqiy asos hisoblanadi. Qolaversa, "Samarkand" - "Huriyat" - "Mehnatkashlar o'qi" - "Mehnatkashlar tovushi" - "Zarafshon" gazetalarini bir-biri bilan bog'lab turgan robita bor. U ham bo'lsa, xalqqa ma'rifat tarqatib, milliy ozodlikka erishish g'oyasidir. Bundan tashqari, ularni bog'lab turgan shaxs (Behbudi) va shaxslar guruhi (Fitrat, Hoji Muin, Saidrivo Alizoda va boshqalar) mavjud. Ular mustamlaka bayrog'ining o'zgarishi, uning natijasida esa gazetaning turli nomlarda atishishdan qat'i nazar, tahririyatda qolib, o'zlarining muqaddas maslaklari - yurt ozodligi uchun imkonlari doirasida harakat qilib, shu yo'lda jonlarini tikib, qurban bo'ldilar. Biroq istiqloqliga erishishgachiga ularning yurt oldidagi xizmatlari e'tirof etila boshlandi. Shu ma'noda "Zarafshon"ning to'yi O'zbekiston matbuotining bayramidir, deyishga to'la haqlimiz.

## SAMARQANDGA "HAMDO'STLIK MADANIYAT POYTAXTI" MAQOMI BERILDI

10-14-sentabr kunlari Qirg'iz Respublikasining Bishkek shahrida Mustaqil davlatlar hamdo'stlik ijodiy va ilmiy ziyo'llari forumi hamda mazkur forum doirasida MDH Davlat axborot agentliklari rahbarlari kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

MDH ijodiy va ilmiy ziyo'llari forumi yig'ilishlarida 2024-yilda Samarqand shahriga "Hamdo'stlik madaniyat poytaxti", Toshkent shahriga "Hamdo'stlik yoshlar poytaxti" maqomi berildi. Forum doirasida "Samarqand - hamdo'stlik madaniyat poytaxti" nomli taqdimot viloyat hokimining o'rinosari Rustam Qobilov o'tkazdi. Vatanimizning ushbu ko'hna shaharlari-

ga bunday yuksak maqomning berilishi madaniy-ma'rifiy sohadagi yangilanishlar, yoshlarga ko'rsatilayotgan ulkan e'tiborning xalqaro miqyosdag'i o'ziga xos e'tirofi deyish mumkin.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi madaniy poytaxti 2010-yilda boshlab har yili Hamdo'stlik davlat rahbarlari kengashi tomonidan tanlanadi.



Hozirgi kunda davlat xizmatchilarining ish vaqtini rejimi to'g'risida ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab salbiy mazmungidagi ma'lumot va tahillarga duch kelmoqdamiz. Albatta, har qanday salbiy fikr uni o'qigan va eshitgan odamda salbiy mulohazalarini tug'dirishi tabiiy. Shu tariqa xalq ichida davlat xizmatiga nisbatan noto'g'ri xulosalar paydo bo'lib, aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar o'rtaida davlat xizmatiga bo'lgan jozibadorlik susayib boraveradi.

Xo'sh, davlat xizmatida ish rejimi bilan bog'liq ahvol haqiqatan ham bugungi kunda achinarlimi? Agar shunday bo'lsa, unga sabab nima?

Xalqimizda ajoyib bir naql bor - "Qars ikki qo'ldan chiqadi". Shunday ekan, davlat xizmatida ish rejimi masalasini isloh qilishni avvalambor, har bir davlat xizmatchisi o'zidan boshlashi lozimga o'xshaydi. Har birimiz o'zimizga "Menga ajratilgan ish vaqtidan qanchalik samarali foydalana-man?", deb savol beraylik.

Ish vaqtini bu odamning ish jadvali yoki mehnat intizomi doirasida o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarini bajargan holda ishxonada o'tkazgan vaqtidir. Ish kuni tushunchasi vaqt chegarasini bildiradi va uning mobaynida ishchi ish joyidan ajralmasligi nazarda tutiladi.

## "12 SOAT ISHLASH SHART EMAS, BOSHNI ISHLATISH KERAK, XOLOS"



### MEHNAT KODEKSIGA KO'RRA...

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 182-moddasiga ko'ra, xodim uchun ish vaqtining normal davomiyligi besh kunlik yoki olti kunlik ish haftasida haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas. 189-moddasiga ko'ra esa ish beruvchi tomonidan xodimni xodim uchun belgilangan ish vaqtini davomiyligidan tashqari ishga jaib etishi ish vaqtidan tashqari ish deb hisoblanadi. Ish vaqtidan tashqari ishning davomiyligi xodim uchun surunksiga ikki kun davomida to'rt soatdan (mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda — bir kunda ikki soatdan) va yiliga bir yuz yigirma soatdan oshmasligi kerak.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ish vaqtini va ishdan tashqari ish haqida yetarli normalar keltirilgan bo'lishiga qaramasdan, davlat xizmatchilarini ishdan tashqari vaqtida ham ishlash holatlari yo'q emas. **Yaqinda**

**"Yuksalish" umummilliy harakati tomonidan o'tkazilgan so'rnovnomada respondentlarning yarmidan ko'pi ish vaqtidan tashqari ishga jaib etilishini bildirgan. Davlat xizmati kodimlarining ish vaqtidan tashqari ishlasiga sabab bo'layotgan omillar qatorida esa ish hajmining ortib ketganligi, turli xildagi ortiqcha topshirqlarning haddan ziyyod bo'libi, o'z vazifasidan tashqari ishlarining yuklatilishi, majlis va yig'ilishlarning cho'zilib ketishi, shuningdek, rahbari ketmaguncha ish joyidan ketmaslik kabi holatlarni keltirishgan.**

Davlatimiz rahbari 2018-yilda vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokidagi yig'ilishda davlat xizmatchilarini yakshamba kunlarini oilasi davrasida o'tkazishi kerakligi, shu bilan birga, ish vaqtida o'zlariga yuklangan baracha vazifalarini samarali va unumli bajarishlari lozimgilini ta'kidlagan edi.

Shunday ekan, bugungi kunda davlat xizmatchisi vaqt me'yorlariga riyoja qilgan holda faoliyatda samadarlikka erisha olishi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa har bir davlat xizmatchisi o'ziga berilgan ish vaqtini to'g'ri taqsimlab, undan samarali foydalanishi talab etiladi. Davlat xizmatchisi uchun 40 soatdan oshmagan besh kunlik ish haftasida kunlik 8 soatdan oshmagan ish vaqtini to'g'ri keladi.

### HAMMA NARSAGA ULGURISH SAN'ATI

Xo'sh, 8 soatlik ish kunida davlat xizmatchisi qanchalik vaqtini to'g'ri taqsimlay oladi? Keling, ushbu savolga javob topish maqsadida "**Samarali taym-menejment**" yoki "**Hamma narsaga ulgurish san'ati**" konuniyatlari bilan yaqidan tanishishi chiqsak.

Bundan 2000 yil oldin mashhur Rim faylasufi Sene-ka vaqtini ikki turga ajaratishni taklif qilgan: foydali va foydasiz. Shundan kelib chiqqan holda Senekaning ikki qoidasi mavjud: har kuni ertalabdan reja tuzish, ishlarni muhimlik darajasiga ko'ra taqsimlash hamda har kuni ertalab ish boshlanishidan 10-15 daqiqa oldinroq kelib, bugungi bajarishimiz lozim bo'lgan ishlarining rejasini

unga sarflanadigan vaqtlarni belgilagan holda tuzib chiqishdir. Psixologlarning fikricha, har bir bajarilgan ishni ish rejadan o'chirib borish odati ish unumdarligining oshishiga xizmat qilar ekan.

Bundan tashqari, vaqtini to'g'ri boshqarishda "**Vaqt o'g'rilari**"ga bardosh berish talab etiladi. Misol uchun, ko'pchiligidan ish vaqtini rejalashtirmaymiz, bir vaqt da bir qancha ishga kirishamiz, barcha uchun foydali bo'lishga intilamiz, "Yo'q!" deyishni bilmaymiz, ish stolimizni tartibga keltirishni unutib qo'yamiz, ishlarni yozib borish odatimiz yo'q, telefonda foydalsiz so'zlashamiz, ijtimoiy tarmoqlarda ko'p mulogot qilamiz, kam dam olib, uyquga to'ymaymiz, muhim ishlarni ortga suramiz va boshqa qator salbiy odatlarimiz bizning qimmatli vaqtimizni "o'g'irlaysi". Bu salbiy odatlarini butunlay yo'qotishga emas, dastlab, hech bo'limganda, kamaytirishga harakat qilishimiz kerak.

### VAQT INVESTITSIYASI

Shuningdek, samarali taym-menejmentda "Yarim saat nazarisi" "ortiqcha" daqiqalarimizni behuda sarflamay, ulardan samarali foydalanishga yordam beradi. Agar har kuni atigi yarim saat bo'sh yoki tejalgan vaqtimizni biror ishga sarflasak, bir yilda vaqti 182 soatni tashkil etar ekan. Bu vaqtini biz o'zimizni rivojlantiradigan yoki qiziqarli kitoblar o'qishga sarlashimiz, xorijiy tilni o'rganishga ketkazishimiz, trening yoki internet-kursga bag'ishlashimiz yoki sport bilan shug'ullanishga ishlashimiz mumkin. Hisob-kitoblarga ko'ra, shunday yondashganda, bir yil davomida 20 ga yaqin katta hajmdagi kitob o'qib chiqish yoki bir nechta kursni o'qib tugatish mumkin ekan. Vaqt investitsiyalrimizni ana shundan, bir qaraganda, arzimagan, mayda loyihalarga sarflab, tarlangan yo'naliшимизда katta muvaffaqiyatlarga erishishimiz mumkin. Bunday oddiy va samarali usul bilan vaqtini nafaqat pulga, balki bilimlarga, ko'nikmalarga, sog'iqliqa, o'zimizdan qoniqishga, baxt tuy'usiga aylantirish mumkin. Qolaversa, yangi ortirilgan bilim va ko'nikmalar hisobiga avval qiyinalib, bir necha soat sarflab bajargan ishizimni yengilroq amalga oshirish usullarini o'zimizda rivojlantirib boramiz.

"12 soat ishlasht shart emas, boshni ishlash kerak, xolos", degan edi mashhur Apple korporatsiyasi asoschisi Steve Jobs.

Vaqt – aqlliroyq, yanxiroq va yetukroq bo'lishimiz uchun berilgan qimmatbaho tuhfa ekanligini inobatga olib, undan oqilonva va to'g'ri foydalanishga odatlanaylik! "Ertaqa" "Bugun"ning eng katta dashnumani ekanligini unutmaylik! Shunda barchamiz ish vaqtini rejimiga riyoja qilib, vaqtidan samarali foydalanib, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz.

**Ra'no UMAROVA,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish  
agentligi viloyat filiali bosh inspektor.

**2023-yil 1-apreldan boshlab 2024-yil 1-mayga qadar fermer xo'jaliklarida ishlovchi xodimlar uchun to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi davlat budgetidan ish beruvchi-larga to'liq qaytarib berilishi amaliyoti joriy etildi.**

Ish beruvchi quydagi amaliyotni bajarishi zarur:

Birinchidan, My3.soliq.uz saytidagi shaxsiy kabinetga elektron raqamli imzo (ERI) yordamida kirib, ketma-ketlikda "Xizmatlar" – "Elektron hujjatlar aylanishi" – "Paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklaridagi ishchilarining jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qaytarish" bo'limlari tanlanadi.

Shundan so'ng ochilgan oynada ish beruvchi haqidagi ma'lumotlar (korxonasi nomi, STIR, manzili va faoliyat turi) avtomatik shakllanadi.

Keyin jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini qaytarish so'ralayotgan davr ko'rsatiladi.

## Fermerlarga soliqdan imtiyoz bor

Lekin ular bundan foydalanmoqchi emas



Masalan, iyun oy uchun soliq hisoboti 2023-yil 15-iyulda topshirilgan. Bunda fermer xo'jalik hisob raqamiga ishchilarining mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari bo'yicha to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobot oyidan keyin gi oyning 25 sanasidan keyin to'liq miqdorda qaytarish mumkin.

Tegishli sanalar kiritilgach, fermer xo'jaliklar xodimlari ro'yxatni va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi avtomatik tarzda shakllanadi.

Ma'lumotlarning haqiqiyligi va ishonchiligidagi xususan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi, miqdori va yuridik shaxsning bank rekvizitlari - pul mablag'lari qaytariladi-

## "XATNING ASLINI KELTIRING"

deya talab qo'ydi Davlat kadastrlari palatasi

Nurobod tumani filiali rahbari

Avvalo, shuni eslatib o'tmoq-chimanki, mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "**Shyolko-vo Agroxim – O'zbekiston**"

Rossiya – O'zbekiston qo'shma korxonasi Nurobod tumani "Sazag on" massivining "Urgut" erkin iqtisodiy zonasu hududida 5,3 hektar yer maydonida xorijiy investitsiya qiymati 30 million AQSh dollarini miqdorida bo'lgan, eng zamona navotexnologiyalarga asoslangan va Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan "**O'simliklarni himoyalash kimoviy vositalari ishlab chiqarish zavodi**" qurilishini nihoysiga yetkazdi.

Zavod yaqin muddatda foydalanishga topshiriladi. 100 ta yangi ish o'rnari yaratiladi.

Odatda korxonani foydalanishga topshirish arafasida uning hujjatlari tayyorlanadi. Ular ichida kadastr hujjatlarining ahamiyati katta.

Shu maqsadda biz Davlat xizmatlari agentligi mahalliy markazi orqali zavod joylashgan yer uchastkasining kadastr pasportini olish bo'yicha ariza beridik.

Ammo Davlat kadastrlari palatasi Samarqand viloyati boshqarmasi Nurobod tumani filialidan 2023-yil 28-iyul kuni berilgan 1718401/R – A2362186 raqamli "**Yer uchastkasining kadastr pasporti**"ni olib, yozamizni ushladi. Chunki ushu rasmiy hujjatda qo'shma korxonaning yer maydoni huquqiy hujjat asosida 3,0 hektar, deb ko'rsatilgan bo'lib, 2,2 hektari "**O'zboshimcha egalangan**", deya qayd etilgan edi.

Aslida biz kadastr xizmati

tuman filialiga Nurobod tumani hokimining 2018-yil 25-iyulda 861-q-soni qarori bilan **3,0 hektar** yer maydoni ajratilganligi, so'ngra viloyat Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini ma'lumiy kengashining 2019-yil 30-dekabrdagi qaroriga ko'ra, (kengash raisi, viloyat hokimi E.Turdimov) tomonidan imzolangan yana **2,3 hektar** yer maydoni qo'shilib, ajratilgan umumiy sahnini **5,3 hektar** qilib belgilanganligi haqidagi hujjatlarni taqdim etgan edik.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mazkur filial tomonidan 2021-yil 8-yanvar kuni berilgan YK-1718235/481732 raqamli

"**Yer uchastkasining kadastr pasporti**"ning haqiqiyligi to'g'risida ma'lumotnomha berishni so'radik. Janob **M.Muxtorov** esa bizning murojatnomamizni qanoatlantrish o'rniga, bizga telefon qilib, "**Xatning aslini keltiring, uni o'qiyman va so'ngra javob yuboram!**" deya shart qo'ydi.

Allaqachon butun mam-lakatimizda hujjatlardan aylanishi elektron aloqa tizimiga o'tkazilgan. Prezidentimiz tomonidan o'g'surilgan "**Odamlar emas, hujjatlardan harakatlanishi kerak**" g'oyasi hayotga o'ishmay joriy etilayotgan bir sharoitda nurobodlik "boshliq"ning bunday talabini qanday tushunsa bo'ladi! Bu byurokratiya emasmi? Yoki o'zining manmanligini ko'rsatishmi?

O'zbekiston Respublikasining "**Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida**"gi Qonuni 5-moddasi ("**Murojaatlarning shakllari va turlari**")da "**Murojaatlар оғ'заки, ўзмача ўюндурулган**" shakllari bo'lishi mumkin", degan qoida mustahkamlab qo'yilganimi janob **M.Muxtorov** bilmasalar kerak-da.

**Yo'ldosh SUYUNOV,**  
"Shyolkovo Agroxim – O'zbekiston"

**Rossiya – O'zbekiston** qo'shma korxonasi yuridik bo'limi boshlig'i.

**"Notariat to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish va ushbu notarial harakatlarni to'xtatib turish muddatlari quyidagicha amalga oshiriladi. Bunda notarial harakatlar haq to'langanidan so'ng zarur bo'lgan barcha hujjatlardan taqdim etilgan kuni amalga oshiriladi.**

## Notarial harakatni to'xtatib turish mumkinmi?



Notarial harakatni amalga oshirish qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilib olish yoki hujjatlarni ekspertizaga yuborish zarur bo'lganida kechiktirilishi mumkin.

Notarial harakatlarni amalga oshirish, bashstari qonuna binoan manfaatdor shaxslardan ushbu harakatlarni amalga oshirishga e'tiroz bor-yo'qligini so'rash zarur bo'lganda, kechiktirilishi mumkin. Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish muddati bir oydan oshmasligi lozim.

Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish muddati bir oydan oshmasligi lozim.

Notarial harakatni amalga oshirishni so'rash murojaat qilgan shaxsning talabiga ko'ra unaq notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish haqidagi qaror beriladi.

Manfaatdor shaxs tasdiqlashni so'rayotgan huquq yoki fakt ustida da'volashish uchun sudga murojaat qilish istagi shaxsdan ariza tushganligi to'g'risida suddan ma'lumot olingan taqdirda notarial harakat amalga oshirilishi lozim.

Bir manfaatdor shaxs tasdiqlashni so'rayotgan huquq yoki fakt ustida da'volashish uchun sudga murojaat qilish istagi shaxsdan ariza tushganligi to'g'risida suddan ma'lumot olingan taqdirda notarial harakat amalga oshirilishi lozim.

Qonun hujjatlardan notarial harakatlarni amalga oshirishni kechiktirish va to'xtatib turishning boshqa asoslarini ham belgilanishi mumkin.

**Rustam QURBONOV,**  
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.



Omon Matjon tavalludining 80 yilligiga

# SHOIRLIK HIKMATDIR, HIKMAT...

Xalqimizning sevimli farzandi,  
O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning ijodiy kamolotida Samarqand  
adabiy muhitini muhim rol o'yagan.

"1965-yilning sentyabr oyidagi - deb yozadi taniqli adabiyotshunos olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Nuriddin Shukurov o'zining "She'rmning umrboqligi" nomli maqolasida. - Men ko'pdan buyon rahbarlik qilib kelayotgan SamDU yosh ijodkorlarining to'garagi mashg'ulotlarida yangi bir ishtirokchi paydo bo'ldi. Jussasi kichik, qorachadan kelgan, oriqqina, nigholari o'tkiz, istarasi issiq bu yigitcha yoshlarning mashqlarini muhokama qilishda qatnashib fikr bildirib, o'z she'rleridan o'qir ekan, darhol e'tiborimni tortdi. Uning muhokamalari ham, she'rleri ham o'z manbijiy asosining kuchliligi, originalligi bilan ajralib turardi.

Bir kun to'garak mashg'ulotidan keyin uning qolishini iltimos qildim va u bilan suhbatlashdim.

Yigitning tarjimai holloddigi edi: Ismi, familyasini Omon Matjonov ekan. 1943-yilda Xorazmning Gurlan tumani Bog'ol'on qishlog'iда tug'ilgan. 1959-yilda o'rta maktabni bitirgan. 1961-yilda Samarqand universiteti chet tillar fakultetining transuz tili bo'limiga o'qishga kirgan. Birinchi kursni bitirgandan so'ng armiya safaga chaqirilgan. Germaniya demokratik respublikasida harbiy xizmat muddatini o'tagan. 1965-yilda armiyadan qaytib o'qishini davom ettira boshlagan.

Men undan so'radim:

- She'rler yozar ekansiz, nega o'zbek va tojik filologiyasi fakultetiga kirmadizing?

- Qabul komissiyasi kotibining "Bu fakultetga juda ko'p odam ariza topshirgan, baribir kira olmaysizlar, yaxshisi chet tillar fakultetiga topsiringlar!" - degan buyruq ohangidagi targ'iboti ta'sirida shu fakultetga kirib qolganman, - deb javob berdi u.

- Xo'p, yaxshi, qachondan buyon she'r mashq qilasiz? Yozgan mashqlarining ko'primi, - so'radim yana.

- Oltinchi, yettingchi sinfdaligimdan buyon. Bir necha mashq daftaram bor!

- Shularni olib kelib ko'satishingiz mumkими?

- Xo'p, yaxshi.

Shu suhbatdan bir-ikki kun keyin transuz tili bo'limi talabasi Matjonov so'rtta qora muqovali daftarni olib keldi.

Men bu daftarni o'qib, hayratim yana oshdi. Chunki u daftarlarda ancha original she'rler, bir qancha aforistik xarakterdagi nasriy qit'alari va har sahifada o'sha she'rler qaysi rangda yozilgan bo'lsa, shu rang bilan chizilgan talay rasmalar mavjud edi. Bu daftarni o'qir ekanman, hayrat va hayajonim qaynab toshganini yashirmayman.

She'rlni o'qib chiqqandan so'ng Omon bilan yana suhbatlashdim va undan:

- O'zbek va tojik filologiyasi fakultetiga o'tib o'qishni istamaysizmi? - deb so'radim.

- Istayman, - deb javob berdi u.

Darhol Omon Matjonovdan universitet rektori Vohid Abdullayev nomiga ariza yozdirib oldim-da, rektor qabuliga shoshildim. Fakultet dekanini Rahim Muqimov bilan birga Vohid Abdullayevdan Matjonovni o'zbek va tojik filologiyasi fakultetiga o'tkazishni iltimos qildi. Vohid Abdullayev va zirlikning talabalarini bir fakultetiga ikkinchi fakultetga o'tkazishni unchaliq ma'qullamasligini qayta-qayta ta'kidlasalar-da, daftarlarni ko'rgach, arizaga qo'l qo'vishga rozi bo'ldi.

Shundan so'ng, 1966-yil sentabrda Matjonov Omon filologiya fakulteti talabasi bo'ldi.

Taniqli munaqqid Nuriddin Shukurov tolmas adabiyotshunos, she'riyat va adabiy jarayonlarning sinchkov kuzatuvchisi, el orasidagi iste'dodli yoshlarni asrab-araylovchi, rag'batlantruvchi va homiylik ko'satuvchi jonkuyar olim edi. Domla tomonidan Samarqandda tashkil etilgan, bugun butun respublikaga tanilgan "Shalola" she'riyat klubi shu jihatdan chinakamiga iste'dodlar maktabi bo'lgan. Omon Matjonning keyinchalik yozgan "Shalola" she'riyat klubini qatnashchisiga nomli she'ri juda mash-hur bo'lib, yosh qalamkashlar tilidan tushmasdi.

Shoir bo'limochchiman, debsan xatingda,

She'riyat sirlarini o'rgating, debsan.

Sen go'yo chaqmoqqand tutib otingga,

Borsa qaytnas yo'ni ko'zlab turibsan.

Shoirlilik kasb emas minba'd, ukajon,

Shoirlilik hikmatdir, hikmat, ukajon.

Mazkur she'riyat to'garagining nomalanishi ham bevosita Nurid-in Shukurovning sevimli shogirdi shu davrlardagi Omonov Matjononing tasavvur olami bilan bog'liq.

Bu haqda Nuriddin Shukurov shunday yozgan edi: "Ko'p o'tmay unga ijodiy to'garakning sardorligini topshirdik. U to'garakka "Shalola" deb nom qo'yishni taklif etdi. Ijodiy ishlarni avvalgilisidan ham jondanib, rivojlanib ketdi. To'garakda Omonning qo'yozma she'rleri to'plamini muhokama qildi va nashrha tavaşıya etishni Yozuvchilar iftifoqi viloyat bo'limidan so'rashga qaror qildik. Bu orada uning she'rleri gazeta va jurnallar sa-hifalarida bosilib chiqsa boshladi. "Sharq yulduzi" jurnalida (1969, 2-son) Omon Matjonning armiyadan turib yuborgan she'rlerining bir qismi bosilishi bilan ular ko'philinkning e'tiborini o'ziga tortdi va adabiy jamoatchilik unga katta umid bilan qaray boshladi".

(Nuriddin Shukurov. "So'z sehri, she'r mehri". Samarqand, "Zarafshon" nashriyoti, 1992-yil. 173-176 betlar).

Omon Matjon bu paytda Samarqand davlat universiteti talabasi, harbiy xizmatni o'tagan, o'z fikri va tuyg'ularini jilovlay boshlagan, ta'lim



chisi bo'lib ishlay boshladi.

1970-yilda ushbu nashriyotda Omon Matjonning birinchi to'plami "Ochiq derazalar" nomi bilan bosilib chiqdi. Bu yosh shoir orzu qilgan derazalardan birinchisining ochilishi edi.

Shoir o'qish davrida Samarqand adabiy muhiti, qadimiy sharning zalvorli tarixi bilan har kuni duch kelardi. Xiva, Xorazm va Samarqand ko'chalari, uzoq va sirlari tarixi ko'z o'ngida uyg'unlik kasb etar, she'riy satrlariga serjilo bo'yoq va mazmun berardi. Ijodining salmoqli qismi tarixiy mavzular ekanligi buning isbotidir. Omon Matjonning dramatik voqeja va obrazlarga boy she'riyatni, keyingi dostonlari yurt tarixini yaxshi bilishidan dalolat bo'lsa, o'ktam va jonkuyar so'zi uning qalb tug'yonlarini, o'tmish va bugunning so'roqlariga javobdir.

U talabalar yillardayoq Alisher Navoiyning "Xamsa" asari ga mehri tushdi, ustozlari Botirxon Valxo'jayev ko'magida adabiyot tarixini, Nuriddin Shukurov, Saydulla Mirzayev darslari va suhbatlarida zamondoshlari asarlarini chuqur o'rgandi. Ayniqsa, Nuriddin Shukurov bilan shoirning sadoqatli ustoz va shogirdligi uzmildi, samimiy mu-loqtari olim vatof etgunga qadar davom etdi. Tarihiy-ma'rifiy mavzudagi "Karvonlar" nomli katta she'rini ustoziga bag'ishladi. Omon Matjon ijodiy yutuqlarining ijd qonvchlari, yoshligi haqida so'z yuritib, Samarqandi azziming qizg'in adabiy muhitidan bahramand bo'lganligini umrinning oxirigacha e'tirof etib keldi.

Uning yigirmaga yaqin she'riy to'plami, qissa va badialarining qaysi binori o'qimang, shoir mahorati va iste'dod qirralarining o'ziga xosligini his etasiz. Ushbu asarlarida milliylik, xalqchilik va tarixiylik ustuvor.

Parvoz etdim men qushlarga qo'shilib erkin,  
Oq bulutlar peshonamni o'pdilar.  
Zamin sehrin shunda qalbga jo etgan edim,  
Oq xirmondan har yoqamga tolalar ulab.

O'zbekiston, zo'r tabarruk ma'volar yurti,  
Beruniylar, Xorazmiylar, Kubrolar yurti,  
Yetti iqilm maftun bo'lgan navolar yurti,  
Vatan birla millatga jon fidolar yurti!  
(Vatan mehri) she'ri.

Shoir tarjima bilan ham mashg'ul bo'ldi. Fridrix Shiller, Sharl Bodler, Yevgeniy Yev-tushenko, Rasul Hamzatov, Shandor Petefi, Yustinus Marsinkyachivus, Berdi Kerbobo-yev, Ibroym Yusupov singari shoir va adib-larning asarlarini o'zbekchaga o'girdi.

Muxammas janrida Ogahiy bilan dadil muloqot qilgan, misiqani yaxshi tushun-gani va anglagani uchun zamondoshlarimiz obraziga doir operaga Zulfiyaxonimidan keyin liberetto ("Sadoqat") yozgan ijodkor ham Omon Matjon.

Yozuvchi Said Ahmad shoir iste'dodiga katta baho bergan edi: "Biz Omonni qalb atom quadrati joylangan shoir deb bilamiz". Oradan yigirma yillar o'tib, Abdulla Oripov Omon Matjoniga munosib so'z aytdi: "Biz Omon bilan turli vazifalarda ishladi, yetarlicha marhamatlar ko'rdik. Lekin bizning asosiy dehqon-chiligidiz - she'r bo'ldi".

Darhaqiqat, Omon Matjon hayotdan hikmat axarib, she'rdaan quvvat olib yashadi.

Umr nima o'zi?! Imon keltiray,  
hikmat bu, bahordek qisqa va ayon:  
Sevgi ila mas'ud onlarni o'yla,  
asl umr shuldir. Qolgan - yolg'on...

Omon Matjon she'riyatini zalvori va ohangi, so'z jilvisi bilan marjonga o'xshaydi, undan biror misrani olib qo'yish amri mahol. Shu boisdan ham uning she'rlerini katta hofizlar, yosh xonandalar ishtiyoq va maroq bilan qo'shiq qilib kuyladi.

Toshpo'lat TUGALOV.

davomida tilchi, adabiyotshunos olimlar, mehribon ustozlaridan adabiyot nazariyasi, she'riyat sirlarini obdan o'rganib, adabiyot olamidan zavq olayotgan yigit edi. Shoirni kuza-tib, ijodidan qoniqayotgan kishilarning ba'zilari uni Xorazmga - qishlog'iga borib o'qituvchilik qilishga, yana birlari Samarqandda qolib ilmiy ish bilan shug'ullanishga undashardi. O'qish tugagach, shoir ustoz Nuriddin Shukurovga murojaat qildi:

- Nima deysiz, to'g'ri yo'lni ko'rsating, maslahat bering, ustoz!

- Sizni yaxshi o'qituvchi bo'lishingizga ishonamiz. Ammo sizdan juda yaxshi shoir chiqishi mumkin. Buyog'i o'zingizga bog'liq - ijod ilohiy.

Ustoz-shogird bir to'xtamga kelishdi.

Omon Matjon Toshkentga yo'l oladigan bo'ldi. Uning baxtiga unga nufuzli ijod dargohi G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida ish topildi. U musahih yordam-

chisi bo'lib ishlay boshladi.

1970-yilda ushbu nashriyotda Omon Matjonning birinchi to'plami "Ochiq derazalar" nomi bilan bosilib chiqdi. Bu yosh shoir orzu qilgan derazalardan birinchisining ochilishi edi.

Shoir o'qish davrida Samarqand adabiy muhiti, qadimiy sharning zalvorli tarixi bilan har kuni duch kelardi. Xiva, Xorazm va Samarqand ko'chalari, uzoq va sirlari tarixi ko'z o'ngida uyg'unlik kasb etar, she'riy satrlariga serjilo bo'yoq va mazmun berardi. Ijodining salmoqli qismi tarixiy mavzular ekanligi buning isbotidir. Omon Matjonning dramatik voqeja va obrazlarga boy she'riyatni, keyingi dostonlari yurt tarixini yaxshi bilishidan dalolat bo'lsa, o'ktam va jonkuyar so'zi uning qalb tug'yonlarini, o'tmish va bugunning so'roqlariga javobdir.

U talabalar yillardayoq Alisher Navoiyning "Xamsa" asari ga mehri tushdi, ustozlari Botirxon Valxo'jayev ko'magida adabiyot tarixini, Nuriddin Shukurov, Saydulla Mirzayev darslari va suhbatlarida zamondoshlari asarlarini chuqur o'rgandi. Ayniqsa, Nuriddin Shukurov bilan shoirning sadoqatli ustoz va shogirdligi uzmildi, samimiy mu-loqtari olim vatof etgunga qadar davom etdi. Tarihiy-ma'rifiy mavzudagi "Karvonlar" nomli katta she'rini ustoziga bag'ishladi. Omon Matjon ijodiy yutuqlarining ijd qonvchlari, yoshligi haqida so'z yuritib, Samarqandi azziming qizg'in adabiy muhitidan bahramand bo'lganligini umrinning oxirigacha e'tirof etib keldi.

Uning yigirmaga yaqin she'riy to'plami, qissa va badialarining qaysi binori o'qimang, shoir mahorati va iste'dod qirralarining o'ziga xosligini his etasiz. Ushbu asarlarida milliylik, xalqchilik va tarixiylik ustuvor.

Parvoz etdim men qushlarga qo'shilib erkin,  
Oq bulutlar peshonamni o'pdilar.  
Zamin sehrin shunda qalbga jo etgan edim,  
Oq xirmondan har yoqamga tolalar ulab.

O'zbekiston, zo'r tabarruk ma'volar yurti,  
Beruniylar, Xorazmiylar, Kubrolar yurti,  
Yetti iqilm maftun bo'lgan navolar yurti,  
Vatan birla millatga jon fidolar yurti!

(Vatan mehri) she'ri.

Shoir tarjima bilan ham mashg'ul bo'ldi. Fridrix Shiller, Sharl Bodler, Yevgeniy Yev-tushenko, Rasul Hamzatov, Shandor Petefi, Yustinus Marsinkyachivus, Berdi Kerbobo-yev, Ibroym Yusupov singari shoir va adib-larning asarlarini o'zbekchaga o'girdi.

Muxammas janrida Ogahiy bilan dadil muloqot qilgan, misiqani yaxshi tushun-gani va anglagani uchun zamondoshlarimiz obraziga doir operaga Zulfiyaxonimidan keyin liberetto ("Sadoqat") yozgan ijodkor ham Omon Matjon.

Yozuvchi Said Ahmad shoir iste'dodiga katta baho bergan edi: "Biz Omonni qalb atom quadrati joylangan shoir deb bilamiz". Oradan yigirma yillar o'tib, Abdulla Oripov Omon Matjoniga munosib so'z aytdi: "Biz Omon bilan turli vazifalarda ishladi, yetarlicha marhamatlar ko'rdik. Lekin bizning asosiy dehqon-chiligidiz - she'r bo'ldi".

Darhaqiqat, Omon Matjon hayotdan hikmat axarib, she'rdaan quvvat olib yashadi.

Umr nima o'zi?! Imon keltiray,  
hikmat bu, bahordek qisqa va ayon:  
Sevgi ila mas'ud onlarni o'yla,  
asl umr shuldir. Qolgan - yolg'on...

Omon Matjon she'riyatini zalvori va ohangi, so'z jilvisi bilan marjonga o'xshaydi, undan biror misrani olib qo'yish amri mahol. Shu boisdan ham uning she'rlerini katta hofizlar, yosh xonandalar ishtiyoq va maroq bilan qo'shiq qilib kuyladi.

Toshpo'lat TUGALOV.

## Tarbiyasiz

# BOLA

# ILMGA

# INTILMAYDI

Mulohaza uchun mavzu



Biz har kuni ta'lif tizimining isloh qilinayotgani, o'qituvchilar mabkabda yangicha metoda dars o'tayotgani, bolani kreativ fikrlashga undaydigan yangi darsliklarning joriy etilayotgani haqida balandparvoz gaplarni eshitayapmiz. Turli tanlovlarda o'quvchi va o'qit